

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor
 M.R. Qodirxonov
_____ 2025-yil

10.00.02 – “O‘ZBEK ADABIYOTI”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD),
talabgorlari uchun kirish imtihoni

DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

ANNOTATSIYA

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017-yil 14-sentyabrdagi “Vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oliy malakali ilmiy va ilmiy –pedagog kadrlar tayyorlash rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 660-sonli buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinng 2017-yil 22-maydagi “ Oliy uquv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi 304- sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim to‘g‘risida” Nizom talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartiga asoslangan holda, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablariga mos ravishda 10.00.02– O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha talabgorlar uchun tuzildi.

Tuzuvchi(lar):

S.Matchanov – pedagogika fanlari doktori, professor.

S.I.Kambarova – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.

R.T.Tillayeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar:

M.Y.Sobirova – pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Abdullayeva – filologiya fanlari doktori (DSc), professor (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti).

Dastur va baholash mezoni Namangan davlat pedagogika instituti kengashining 2025-yil 29- oktiyabrdagi 3 - sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va tasdiqqa tavsiya etilgan

Filologiya kafedrası mudiri:

R.T.Tillayeva

Kelishildi:

Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i:

J.A.Yuldashev

KIRISH

Mazkur dastur 10.00.02 –O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni uchun mo‘ljallangan bo‘lib, hozirgi adabiy jarayon va adabiy tanqid, shuningdek, zamonaviy adabiyotning dolzarb muammolar, adabiy yo‘nalishlar, nazariy ta’limotlarga oid bilim va ko‘nikmalarni tekshirish va baholashga mo‘ljallangan holda uchun ishlab chiqilgan. Dastur O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standarti, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlari asosida va uning talablariga muvofiq tuzildi.

Dasturning maqsadi – izlanuvchilarni fanni o‘qitishdan maqsad talabgorlarni o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodologiyasiga oid bilim ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Dasturning vazifasi – tadqiqotchilarni o‘zbek adabiyotiga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish uchun zarur kunikmalarni egallash; pedagogik fanlarni o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiyaning zamonaviy usullarini texnologiyalarni keng doirada qullay olishga yo‘naltirish pedagogik faoliyatini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorlashni shakllantirishdan iborat. Fan bo‘yicha talabgorlarni bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar.

Dastur bo‘yicha talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar: “O‘zbek adabiyoti”ni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- o‘zbek adabiyoti fanining predmeti, maqsad va vazifalari; ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va strategiyasi; adabiyot fanlarning mazmuni va ilmiy asoslari, uning kategoriya va tamoyillari; o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar; pedagogika fanining tasnifi va asosiy jihatlari; ma’ruza o‘qishga qo‘yiladigan talablar; seminar mashg‘ulotining mohiyati va turlari; o‘qitish metodikasi **tasavvurga ega bo‘lishi;**

- pedagogik fanlar mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlarini; pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlarni; pedagogik fanlarni o‘qitish metodlari tasnifini; o‘qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarda amaliy ishlashni; zamonaviy pedagogik fan yutuqlari va ilg‘or pedagogik tajribalardan amaliy foydalanib, mustaqil bilim olishni; o‘quvchilarni shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olish, auditoriya bilan o‘zaro aloqalar taktikasini o‘rnatish va psixologik to‘g‘ri munosabatlarni boshqarishni bilishni; ta’lim standartlarining yangi talablari va o‘zining ehtiyojlari bilan bog‘liqlikda o‘qitish va ta’lim olganlikni tashxis etishning turli usul va vositalaridan samarali foydalanish hamda metodik fanlarni o‘rganishda o‘quv mashg‘ulotlari taksonomiyasini; ko‘rgazmali va amaliy metodlarni; o‘qitishning ta’limiy metodlarini, o‘qitishning interfaol usullarini; dasturlashtirilganda’limni; pedagogika va metodik fanlardan bilimlarni nazorat qilish va baholashni tashkil qilishni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- bilimni diagnostika hamda nazorat qilishning turli vositalari va usullaridan samarali foydalanish; ta’lim standartlarining yangi talablariga mos ravishda mustaqilyangi o‘qitish usullarni yaratish; ilg‘or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda ta’lim berish; individual, shaxsiy voyoshga oid o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda auditoriya bilan psixologik

asoslimuloqot va o‘zaro harakatni tashkil etish; psixologiya fanlarini o‘qitishda nazorat turlari, baholash tamoyillarini qo‘llay olish; pedagogika va psixologiyani o‘qitishda bilimlarni nazorat qilishda amaliy topshiriqlarni bajarish; talaba psixologiya fanlarini o‘qitishning metodik xususiyatlari, o‘rta maxsus va oliy ta’limda педагогик fanlarni o‘qitishning o‘ziga xosligi dars jarayoniga metodlarni qo‘llash, talabalarni mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish; pedagogika va методик fanlarni o‘qitishda bilimlarni nazorat qilish shakllarini qo‘llash **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi**;

Metodik fanlarning tushunchasi va ta’rifi: «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun», metodik fanlarning tushunchasi, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi metod va shakllarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning rivojlanishi.

Dasturni tayyorlashda “O‘zbek adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Adabiyot nazariyasi”, “O‘zbek bolalar adabiyoti”, “O‘zbek folklari”, “ifodali o‘qish”, “Ilmiy tadqiqot asoslari”, “Badiiy asar tahlili”, “Navoiyshunoslik”, “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi”, “Aruz va poetika asoslari”, “Jahon adabiyoti” fanlari dasturlariga tayanildi.

2025-yilga tayanch doktoranturaga qabul uchun 10.00.02 –

O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislik

fanlaridan kirish imtihoni umumiy savollari

MAJMUASI

1. O‘zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish masalasi.
2. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida.
3. Islomgacha bo‘lgan turli diniy oqimlar.
4. Mumtoz she’riyatning shakllanishi.
5. Mumtoz adabiyotda an’anaviy mavzu va obrazlar.
6. O‘zbek mumtoz adabiyotida obrazlar tizimi (lirik asar, epik asar misolida).
7. Sharq adabiyoti uchun umumiy bo‘lgan obrazlar tasnifi va tavsifi.
8. Kichik lirik janrlar tavsifi.
9. Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo‘lgan adabiyot.
10. Qadimgi davrlardan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va san’ati.
11. Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar.
12. Mif va afsonalar qadimgi hayot aksi, tabiat haqidagi tasavvurlarining badiiy ifodasi ekanligi.
13. Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi).
14. Hadis to‘plash an’anasi va unda turkistonlik buyuk muhaddislarning roli.
15. Markaziy Osiyo buyuk allomalar vatani: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari.
16. XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot.
17. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi.
18. Badiiy asarlarda Qur’oni karim va Hadisi sharif sharhlari.
19. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘ot-it-turk” asari.
20. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.

21. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.
22. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. Turkiy she'riyatda hikmat janrining shakllanishi.
23. Sulaymon Boqirg'oniy asarlari. "Boqirg'on kitobi".
24. XIV-XVI asrlar adabiyoti va davr madaniy hayotiga sharh.
25. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi.
26. Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari.
27. Sayfi Saroyi ijodi. Shoir lirikasining mundarijasi va badiiy xususiyatlari.
28. Haydar Xorazmiy ijodi. Shoir hayoti va ijodining manbalari. "
29. Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma"si. Asar tarkibi va janr xususiyatlari.
30. Durbek ijodi. "Yusuf va Zulayho" dostoni. Doston muallifligi masalasi.
31. Atoyi ijodiy merosining o'rganilish tarixidan. Atoyining lirik merosi.
32. Sakkokiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.
33. Gadoiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.
34. Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy munosabatlari.
35. Alisher Navoiy ijodiy merosi. Uning turkiy xalqlar adabiyotida, umuman jahon adabiyotida tutgan o'rni.
36. Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Bobur she'riyati.
37. Shayboniyxon hayoti va ijodi.
38. Muhammad Solih ijodi.
39. Xoja hayoti va ijodi.
40. Qul Ubaydiy hayoti va ijodi manbalari.
41. Turdi hayoti va ijodi.
42. Mashrab hayoti va ijodi manbalari.
43. So'fi Olloyor hayoti va asarlari.
44. Xiva adabiy muhitidagi madaniy hayot.
45. Adabiy muhit va uning o'ziga xos jihatlari.
46. Abulg'azi Bahodirxon hayoti va ijodiy merosi.
47. Nishotiy hayoti va ijodi manbalari.
48. Andalib hayoti va ijodi.
49. Shermuhammad Munisning ijodiy faoliyati.
50. Ogahiy hayoti va ijodi manbalari.
51. Qo'qon xonligidagi madaniy hayot. O'rganilishi. Adabiy muhitning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari.
52. Amiriyning adabiy muhit asoschisi va rahnamosi sifatidagi maqomi.
53. Maxmur adabiy merosi.
54. Xo'janazar Huvaydo hayoti va ijodi.
55. Amiriy hayoti va ijodi manbalari.
56. Gulxaniy hayoti va ijodi.
57. Uvaysiy hayoti va ijodi.
58. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi.
59. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. (1865-yildan 1929-yilgacha).
60. Komil Xorazmiy ijodiy merosining o'rganilishi tarixi.
61. Feruz adabiy merosi.
62. Muqimiy hayoti va adabiy merosi o'rganilishi tarixi.

63. Furqatning tarjimai holi. Farg‘ona hamda Toshkent davri faoliyati.
64. Is‘hoqxon Ibrat – ma‘rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o‘zbek matbaachilaridan biri sifatida..
65. XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari.
66. Ismoilbek Gasprinskiy hayoti va faoliyati.
67. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o‘rganilish tarixi.
68. Abdulla Avloniy. Avloniyshunoslik. Hayoti sahifalari. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodining o‘rganilishi tarixi, manbalari.
69. Cho‘lpon tarjimai holi. Jadidchilik va Cho‘lpon she‘riyati.
70. G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi.
71. Oybek hayoti va ijodi. Adibning adabiy merosi haqida ma‘lumot.
72. Hamid Olimjon hayoti va ijodi.
73. Qahhor hayoti va ijodi. A.Qahhor-hikoyanavis.
74. Usmon Nosir hayoti haqida ma‘lumot.
75. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi.
76. Mirtemir hayoti va ijodi. Shoir ijodida davr ziddiyatlarining tasviri.
77. Zulfiya hayoti va ijodi. Shoir she‘riyatida hijron va sadoqat motivi.
78. Said Ahmad hayoti va ijodi. S.Ahmad romanlarida realistik hayot tasviri.
79. Odil Yoqubov hayoti va ijodi.
80. Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi
81. Erkin Vohidov hayoti va ijodi.
82. E.Vohidov she‘riyatida an‘ana va novatorlik.
83. E.Vohidovning istiqlol yillari davridagi ijodi.
84. Abdulla Oripov hayoti va ijodi.
85. A.Oripov she‘riyatida badiiy mukammallik va falsafiy teranlik.
86. A.Oripov – tarjimon.
87. A.Oripovning istiqlol yillari davridagi ijodi.
88. O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi.
89. O‘.Hoshimov – mahoratli romannavis. “Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar” romanlari urush muammosining insoniyat boshiga keltirgan fojialari.
90. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi.
91. Sh.Xolmirzayev – hikoyanavis.
92. Tog‘ay Murod hayoti va ijodi. Adib ijodida milliylikning o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lishi.
93. Rauf Parfi ijodiy merosi. Rauf Parfi – iste‘dodli shoir.
94. Rauf Parfi she‘rlarida Vatan, millat va erk mavzusi.
95. Shavkat Rahmon ijodi.
96. Shavkat Rahmon – shoir va tarjimon.
97. Shavkat Rahmon ijodining tadrijiy takomili.
98. Usmon Azim – iste‘dodli shoir, dramaturg va adib.
99. Adabiyotshunoslik-badiiy adabiyot haqidagi fan; adabiyotshunoslikning obykti, predmeti, vazifalari.

100. Adabiyot – hayotning badiiy inʼikosi sifatida.
101. Badiiy adabiyotda tipiklashtirish.
102. Badiiy asar mazmuni va shakli mutanosibligi.
103. Badiiy asar mavzusi va gʻoyasi.
104. Badiiy asar syujeti. Syujet unsurlari.
105. Badiiy asar kompozitsiyasi.
106. Badiiy asar tili. Badiiy tasvir vositalari.
107. Sheʼriy nutq haqida tushuncha. Aruz tizimi. Poetik koʻchimlar.
108. Adabiy turlar va janrlar.
109. Ijodiy metodlar. Adabiy oqimlar. Uslub.
110. Bolalar adabiyoti kitobxonlarning yosh xususiyatlariga koʻra tasniflanishi.
111. Bolalar adabiyoti va folklor. Pandnomalar. Rivoyat va afsonalar.
112. Bolalar adabiyoti oʻziga xos xususiyatlari.
113. Oʻzbek va jahon bolalar adabiyoti. Bolalar adabiyotida mavzular olami.
114. Bolalar adabiyotida obrazlar talqini.
115. Oʻzbek bolalar adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi, adabiy merosi.
116. Xalq ogʻzaki ijodi haqida.
117. Qadimgi davrda xalq ogʻzaki ijodi.
118. Mif va afsonalar. Qahramonlik eposlari.
119. Folklor janrlari.
120. Oʻzbek xalq ertaklari.
121. Oʻzbek xalq dostonlari.
122. Bugungi hikoyalarnin oʻziga xosligi va taraqqiyot xususiyatlari.
123. Hozirgi oʻzbek qissachiligining qirralari.
124. Bugungi oʻzbek romanida davr, tarix, zamon masalalari.
125. Oʻzbek fantastikasi tarixi va uning oʻziga xosligi.
126. Yangi bosqichdagi oʻzbek dramaturgiyasi.
127. Bugungi kun publitsistikasi va davr mezoni.
128. Bugungi kun adabiy tanqidchiligi. Bugungi kun adabiy tanqidchiligida sodir boʻlayotgan tub oʻzgarishlar.
129. Adabiy jarayon milliy va madaniy-merosimizning ajralmas qismi sifatida.
130. Badiiy tahlilda falsafiy va milliy asosning oʻrni.
131. Badiiy tahlil turlari, tahlil turlarining oʻzaro aloqadorligi.
132. Badiiy tahlil yoʻnalishlari: genetik, tipologik, funksional, falsafiy, psixologik va filologik.
133. Hozirgi adabiy jarayon taraqqiyotining asosiy tendentsiyalari
134. Hozirgi adabiy jarayon va roman janri moammolari.
135. Mustaqillik davri adabiyotining yetakchi xususiyatlari.
136. Oʻzbek modern sheʼriyati haqida maʼlumot
137. Hozirgi adabiy jarayonda muumtoz adabiyot anʼanalari.
138. Adabiy jarayon va mafkura
139. Shoʻrolar davri adabiyotining yetakchi xususiyatlari.
140. Hozirgi adabiy jarayonda qissa va janrning taraqqiyoti.
141. Hozirgi adabiy jarayonda xalq ogʻzaki ijodi anʼanalari

142. Adabiy jarayonda hikoya janri.
143. Hozirgi adabiy jarayonda jahon adabiyoti an'analari
144. Adabiy jarayon va dramaturgiya.
145. Sho'rolar va mustaqillik davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
146. Hozirgi adabiy jarayon va adabiyot tanqidchilik.
147. Adabiy jarayon haqida ma'lumot.
148. Hozirgni adabiy jarayonda matbuotning o'rni (Mustaqillik yillari misolida).
149. Adabiy jarayonda ijodiy metod masalasi.
150. Modern she'riyat o'zbek adabiy tanqidchiligi talqinida.
151. Hozirgi adabiy jarayonda milliy g'oya talqini.
152. Adabiy jarayonda tarixiy mavzu talqini.
153. Hozirgi adabiy jarayonda istiqlool g'oyalar talqini.
154. Adabiyot va mafkura.
155. Adabiy jarayonda zamonaviy mavzu talqini.
156. Hozirgi adabiy jarayonda obraz yaratish muammolari.
157. Adabiy jarayonda milliy qadriyatlar talqini.
158. Adabiy jarayon va ijtimoiy hayot
159. Hozirgi romanlarda zamondoshlar obrazi talqini.
160. Adabiy jarayon – milliy mafkura masalalari.
161. Hozirgi adabiy jarayon va rus adabiyoti.
162. O'tgan asrning 20-yillari adabiy jarayonda mafkuraviy kurash.
163. Cho'lpon, Fitrat ijodi va hozirgi adabiy tanqidchiligi.
164. Adabiy tanqidning adabiy jarayonga ta'siri.
165. O'zbek modern she'riyati asosiy xususiyatlari.
166. Mustaqillik davri va o'zbek romanchiligi muammolari.
167. Hozirgi adabiy jarayonda doston janri.
168. Hozirgi adabiy jarayonda mavzu va g'oya talqini.
169. Hozirgi o'zbek she'riyatida obrazlilik.
170. Milliy adabiyot –milliy ma'naviyatni shakllantirish omili.
171. Hozirgi adabiy jarayonda tarixiy shaxslar talqini.
172. Mustaqillik davri adabiyoti badiiy obraz yaratish muammolari.
173. Istiqlool adabiyoti –kechinmalar adabiyoti.
174. Adabiy jarayon va adabiy me'ros muammolari.
175. Adabiy jarayon va janrlar taraqqiyoti.
176. Adabiy jarayonning kundalik hayot bilan hamnafasligi.
177. Adabiy jarayon va vaznlar taraqqiyoti.
178. Sho'rolar davri adabiyotini baholashdagi biryoqlamaliklar.
179. Hozirgi adabiy jarayonda tarixiy shaxslar obrazi talqini.
180. Hozirgi adabiy jarayon va esse janri.
181. Modern adabiyot adabiy jarayonda yangi yo'nalish sifatida.
182. Mustaqillik davri she'riyatining yetakchi xususiyatlari.
183. Adabiy tanqid taraqqiyotining hozirgi bosqichi.
184. Hozirgi adabiy jarayonda publitsistika janri.
185. Hozirgi o'zbek lirikasidagi badiiy izlanishlar.
186. Muhammad Yusuf ijodida obrazlar talqini.

187. Faxriyor, Bahrom Ro‘zimuhammad, Abduvali Qutbiddin she‘riyati tahlili.
188. Halima Xudoyberdiyeva, Farida Afro‘z, Zulfiya Mo‘minova she‘riyatining yetakchi badiiy xususiyatlari.
189. Zebo Mirzayeva, Guljamol Asqarova hamda Xosiyat Rustamova she‘riyati tahlili.
190. Hozirgi o‘zbek hikoyasida qahramonlar masalasi.
191. Hikoyachilikda ramziy-mifologik talqin.
192. Nazar Eshonqul hamda Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida modernistik talqin.
193. Hozirgi o‘zbek qissachiligining qirralari.
194. Ulug‘bek Hamdam, hamda Shoyim Bo‘tayev qissalari tahlili. Hozirgi o‘zbek romanchiligidagi janr izlanishlar.
195. Xurshid Do‘stmuhammad romanlarida shaxs fojiasi talqini.
196. Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanida obrazlar talqini.
197. Dramaturgiyada tarixiy va zamonaviy mavzu.
198. Komediya hayotiy voqelikning badiiy talqini.

O‘ZBEK ADABIYOTI

Mumtoz adabiyot istilohi, uning ma‘no ko‘lami. Sharq xalqlari mumtoz adabiyotida mushtaraklik va o‘ziga xoslik, o‘zaro ta‘sir masalalari. O‘zbek mumtoz adabiyoti Sharq adabiyoti kontekstida. Mumtoz adabiyotda sujetlarning, janrlarning ko‘chishi va o‘zbek mumtoz adabiyotida qat‘iylashuvi.

Mumtoz adabiyotdagi davriy o‘zgarishlar va bularning sabablari.

O‘zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish masalasi. Adabiy-badiiy hodisalar davrlashtirishning muhim mezon. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Adabiyotshunoslar tomonidan taklif etilgan davrlashtirish prinsiplari. Mumtoz adabiyotni o‘rganishning metodologik asoslari va uni tadqiq etish metodlari. Shu kungacha qo‘llanilgan tadqiqot metodlari. Adabiy tahlil usuli. Qiyosiy-tarixiy metodning mumtoz adabiyotni o‘rganishdagi afzalliklari. Mumtoz badiiy asarlarni talil qilishda yangi metod va yondashuvlar.

Mumtoz adabiyotning paydo bo‘lishi va shakllanishi. Mumtoz adabiyotning paydo bo‘lishi va shakllanishidagi asosiy omillar: mifologiya va uning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni, xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot munosabati, tarjima adabiyoti va mumtoz adabiyot. Islomgacha bo‘lgan turli diniy oqimlar (zardushtiylik, moniylik, buddaviylik va b.)ning yozma adabiyot yuzaga kelishidagi roli. Mumtoz adabiyotning falsafiy-nazariy manbalari, jumladan, diniy manbalar, irfon va falsafa, tarix va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Qur‘oni karim va hadisi sharif badiiy ijodning bosh manbasi sifatida. Didaktik adabiyot va uning vakillari.

Didaktik asarlar. Didaktik asarlar (“Kalila va Dimna”, “Chor Darvesh”, “Guliston” (Sa‘diy), “To‘tinoma”, “Bahoriston” (Jomiy) va boshqalar); **badiiy bo‘lmagan asarlar, jumladan, geografiyaga oid** (“Ajoyib ul-buldon”, “Hudud ul-olam...”, “Safarnoma”, “Qandiya” va boshqalar), **tarixga oid** (“Ta‘rix Bal‘amiy/“Tarixi Tabariy” tarjimalari, “Tarixi Buxoro”(Narshaxiy), “Ta‘rix Bayhaqiy” va boshqalar) va boshqa turli mavzulardagi asarlar, jumladan, **tazkiralari va siyosiy-**

axloqiy mavzudagi asarlar (“Qobusnoma” (Kaykovus), “Siyosatnoma” (Nizom ul-mulk), “Navro‘znoma” (Umar Hayyom), “Chahor maqola” (Nizomiy Aruzi Samarqandi), “Hadoyiq us- sehr fi daqoyiq ush-she‘r” (Rashididdin Vatvot), “Tazkirat ul-avliyo” (Attor), “Fi hi mo fihi” (Rumi) “Lubob ul-albob” (Avfiy) ,“Tazkirat ush-shuro” (Davlatshoh Samarqandiy) va boshqalar.)

Mumtoz she‘r. Mumtoz she‘rning mumtoz nasrdan farqli jihatlari. Mumtoz she‘rning shakllanishi. Aruz she‘r sistemasi haqida umumiy ma‘lumot. Qofiya va bayt, qofiya va band. An‘ana va o‘ziga xoslik – mumtoz adabiyotdagi eng muhim adabiy hodisa. O‘zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur. Lirik turga mansub janrlar. O‘zbek mumtoz adabiyotida ularning barqarorlashi va tadrijiy takomili. Devon, bayoz va tazkiralar – mumtoz adabiyotni o‘rganishda muhim manbalar. Devon, bayoz tuzish va tazkirachilik tarixidan.

Mumtoz adabiyotda an‘anaviy mavzu va obrazlar. O‘zbek mumtoz adabiyotida obrazlar tizimi (lirik asar, epik asar misolida). An‘anaviy obrazlar genezisi va rivojlanishi tadriji. Sharq adabiyoti uchun umumiy bo‘lgan obrazlar tasnifi va tavsifi. Ramz va timsollar olami. O‘zbek mumtoz adabiyotida majoz tarixi. Badiiy matn talqinida ramz va timsollarning muayyan adabiyotgan daxldorligini e‘tiborga olish zarurati. Rang, son, tabiat ashyolariga oid ramziy timsollar va ularning ma‘nolari.

O‘zbek mumtoz poetikasi asoslari. Mumtoz poetika haqida umumiy ma‘lumot. Ilmlar uchligi va ularning mumtoz poetikani o‘rganishdagi ahamiyati. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qarashlar. Balog‘at ilmi. Uning tarixi va tadrijiy takomili. Fasohat. Ilmi bayon. Balog‘at ilmida tashbeh. Haqiqat va majoz. Istiora. Arabiy manbalarda balog‘at ilmiga berilgan baho. Forsiy manbalarda balog‘at ilmi. Balog‘at ilmining sof adabiyotshunoslikdagi talqini. Ilmi aruz, ilmi bade‘, ilmi qofiya. **Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she‘r navlari.** Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalanish shakllari (nasr, nazm). Baytli she‘r shakllari. G‘azal, qasida va mustazod janrlari. Kichik lirik janrlar tavsifi.

Qadimgi davr adabiyoti. Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo‘lgan adabiyot. Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Qadimgi davrlardan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va san‘ati. Qadimgi shumer madaniyati va turkiy qavmlar tarixi. “Bilgamish” dostonining turkiy xalqlar eposiga munosabati.

Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar. Ularning asosiy manbalari. Mif va afsonalar qadimgi hayot aksi, tabiat haqidagi tasavvurlarining badiiy ifodasi ekanligi. Mif va afsonalarda badiiy xayolotning o‘rni. Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo xalqlariga doir ma‘lumotlar.

Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi). Somoniylar, saljuqiylar, g‘aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat. Hadis to‘plash an‘anasi va unda turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. Imom Buxoriy va at-Termiziy. «Al-jome‘u-s-sahih» va «Shamoyili Muhammadiyya» asarlari. IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotga faol aralashuvi. **Arab va fors tillaridagi adabiyot.** Turkiy xalqlarning arab va fors tillarida ijod etishi. Markaziy Osiyo buyuk allomalar vatani: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari. Badiiy asarlar va tazkirachilik. Abu Mansur as-Solibiy va uning

«Yatimatu-t-dahr» asari. Chagʻoniyon adabiy muhiti. **XI-XIII asrlar adabiyoti.** XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Turkiy tilning yangi adabiy bosqichga koʻtarilishi. Qoraxonlilar davrida turkiy madaniyatning taraqqiyoti. Bolasogʻun va Koshgʻardagi madaniy hayot. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Badiiy asarlarda Qurʻoni karim va Hadisi sharif sharhlari.

Mahmud Koshgʻariy va uning “Devonu lugʻot-it-turk” asari. “Devonu lugʻoti-t-turk” – adabiy manba sifatida. **Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.** “Qutadgʻu bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Doston janrlari: masnaviy, qasida, toʻrtlik va gʻazal unsurlari. Asarning ahamiyati. **Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.** Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining oʻrganilish tarixi. “Hibatu-l- haqoyiq” asari. Asar mavzui va tarkibi. Hadislar asosida badiiy asar yaratish anʼanasi. Asarning badiiy xususiyatlari. **Xoja Ahmad Yassaviy ijodi.** Turkiy sheʼriyatda hikmat janrining shakllanishi. “Devoni hikmat” asari va uning tarkibi. Yassaviy izdoshlari. Sulaymon Boqirgʻoniy asarlari. “Boqirgʻon kitobi” mundarijasi.

XIV-XVI asrlar adabiyoti. davr madaniy hayotiga sharh. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi. Tasavvuf tarixida irfon bosqichi. Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy va Imom Gʻazzoliy asarlari. Ilk turk mutasavviflari ijodi. Yassaviylik tariqati va uning adabiy manbalari. Kubroviyya tariqati va bu tariqatning badiiy ijodda aks etishi. Adabiy janrlar va ularning taraqqiyoti.

Nosiriddin Rabgʻuziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining oʻrganilish tarixidan. Paygʻambarlar tarixi asosida yaratilgan asarlar. “Qisasi Rabgʻuziy” (“Qisasu-l-anbiyo”) asarining tarkibi. Asar tarkibidagi hikoya va mumtoz sheʼriy janrlar. **Sayfi Saroyi ijodi.** Shoir lirikasining mundarijasi va badiiy xususiyatlari. “Suhayl va Guldursun” dostoni. “Gulistoni bi-t-turkiy” asari. Maʼrifiy-taʼlimiy adabiyot. **Haydar Xorazmiy ijodi.** Shoir hayoti va ijodining manbalari. “Maxzan-ul-asror” dostoni va Nizomiy ijodiga munosabat. Dostonning kompozitsion qurilishi va syujeti. **Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma”si.** Asar tarkibi va janr xususiyatlari. **Durbek ijodi.** “Yusuf va Zulayho” dostoni. Doston muallifligi masalasi. Badiiy adabiyotda “Qissayi Yusuf” sujeti. **Qutb hayoti va ijodining manbalari.** “Xisrav va Shirin” dostonining yaratilish tarixi, nusxalari. Asar syujeti, voqealar silsilasi va asosiy qahramonlari. **Atoyi ijodiy merosining oʻrganilish tarixidan.** Atoyining lirik merosi. Lirikasining mavzular koʻlami va timsollar olami. Atoyi sheʼriyatida majoz va haqiqat. **Sakkokiy hayoti va ijodining oʻrganilish tarixi.** Adabiy merosi. Turkiy qasidachilik taraqqiyotida Sakkokiyning oʻrni. Sakkokiy lirikasining mavzulari va timsollar tizimi. **Gadoiy hayoti va ijodining oʻrganilish tarixi.** Gadoiyning ijodiy merosi. Gadoiy sheʼriyatining mavzulari, mundarijasi va janr xususiyatlari. **Lutfiyning ijodiy faoliyati.** Lutfiy va Navoiy munosabatlari. Lutfiy lirikasi, janr xususiyatlari. Turkiy sheʼriyatda tuyuq janrining takomili. Lutfiy sheʼriyatida badiiy mahorat. Lutfiyga nisbat berilgan asarlar. **Husayniy lirikasining manbalari.** Husayniy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir. “Risola” asari va uning mundarijasi. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

Alisher Navoiy ijodiy merosi. Uning turkiy xalqlar adabiyotida, umuman jahon adabiyotida tutgan oʻrni. **Bobur hayoti va ijodining oʻrganilish tarixi.** Shoirning hayoti va ijodiy faoliyati aks etgan manbalar. Bobur sheʼriyati. Devonining janr xususiyatlari. Badiiy mahorati.

«Boburnoma»ning janr xususiyatlari. Uning adabiy-ilmiy qimmat. Asardagi timsollar. Badiiy xususiyatlari. Asarning ahamiyati. Ilmiy va falsafiy merosi. “Aruz risolasi”da turkiy aruz masalalari. “Mubayyin” ta’limiy-tasavvufiy asar sifatida. “Volidiyya” asarida Xoja Ahror Valiy ta’limoti.

XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmi (1865-yil)gacha bo’lgan davr adabiyoti. Davr madaniy hayotiga sharh. Siyosiy hayotdagi beqarorlik va sulolalar almashinuvi. Adabiy hayotning o’ziga xos xususiyatlari. Xonliklar markazlarida adabiy muhitning shakllanishi va taraqqiyoti. Buxoro adabiy muhiti. Buxoro adabiy muhitining xos xususiyatlari. Shayboniyxon hayoti va ijodi. Muhammad Solih ijodi. Xoja ijodi. Qul Ubaydiy hayoti va ijodi manbalari. Turdi ijodi. Mashrab hayoti va ijodi manbalari. So’fi Olloyor hayoti va asarlari.

Xiva adabiy muhitidagi madaniy hayot. Adabiy muhit va uning o’ziga xos jihatlari. Zullisonaynlik va Navoiy an’alarining davom ettirilishi. Devon tuzish an’alarining takomillashtirilishi. Janrlar poetikasi. Tarixnavislik. Tarjima maktabining o’ziga xosligi, takomillashuv tamoyillari. Bayozchilik, tazkiranavislik va noshirlikning taraqqiy etishi. Abulg’ozi Bahodirxon hayoti va ijodiy merosi. Nishotiy hayoti va ijodi manbalari. Andalib hayoti va ijodi. Shermuhammad Munisning ijodiy faoliyati. Ogahiy hayoti va ijodi manbalari.

Qo’qon xonligidagi madaniy hayot. O’rganilishi. Adabiy muhitning shakllanishi va o’ziga xos xususiyatlari. Amiriyning adabiy muhit asoschisi va rahnamosi sifatidagi maqomi. Janrlar poetikasi. Adabiy muhitda xalq og’zaki ijodiga munosabat masalasi. Tarixnavislik, she’riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari yaratilishi. Tazkiranavislikning yangi shakllari. Fazliy Namangoniy rahbarligida tuzilgan tazkira. “Majmuai shoiron”ning o’zbek adabiyoti tarixidagi o’rni. Tuzilishi va janrlar tarkibi. G’oziy ijodi. “Yusuf va Zulayxo” dostoni. Satirik va yumoristik asarlar. Maxmur adabiy merosi. Xo’janazar Huvaydo hayoti va ijodi. Amiriy hayoti va ijodi manbalari. Gulxaniy hayoti va ijodi. Uvaysiy hayoti va ijodi. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Muhammad Alixon (Xon) ijodi.

Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti. (1865-yildan 1929-yilgacha). Davr adabiyotining ilk bosqichi – yangicha ma’rifatparvarlik adabiyoti: manbalari, yuzaga kelishi.

